Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voiti o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффарович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIVASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitora Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	



BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI

Maxmudov Omon Tuxtayevich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz davlat universiteti

E-mail: maxmudovomon78@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit risklarini baholash va ularni nazorat qilishda Cost of Risk (CoR) ko'rsatkichining amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Rossiya va O'zbekiston bank tizimlari misolida CoR dinamikasi 2020–2024-yillar kesimida o'rganilib, ularning o'zaro farqlari, o'sish sabablari hamda barqarorlikka ta'sir etuvchi omillari aniqlangan. Shuningdek, "Kapitalbank" ATB misolida CoR hisob-kitoblari amalga oshirilib, IFRS-9 xalqaro standartlariga asoslangan risklarni baholash bosqichlari (Stage 1–3) tahlil qilingan. Natijalar asosida tijorat banklarida risklarni avtomatlashtirilgan modellar yordamida boshqarish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va iste'mol kreditlari segmentidagi xavflarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Cost of Risk, tijorat banklari, kredit riski, moliyaviy barqarorlik, IFRS-9, zaxiralar, risk boshqaruvi, kredit portfeli, diversifikatsiya.

Abstract. This article analyzes the practical significance of the Cost of Risk (CoR) indicator in assessing and controlling credit risks of commercial banks. The dynamics of CoR in Russian and Uzbek banking systems during 2020–2024 are examined, identifying differences, growth factors, and their impact on financial stability. Using JSC Kapitalbank as a case study, CoR is calculated and analyzed according to the international IFRS-9 standard, covering risk stages 1–3. Based on the findings, the study proposes recommendations for implementing automated risk management models, diversifying loan portfolios, and mitigating risks in the consumer lending segment.

Key words: Cost of Risk, commercial banks, credit risk, financial stability, IFRS-9, reserves, risk management, loan portfolio, diversification.

Аннотация. В данной статье рассматривается практическое значение показателя Cost of Risk (CoR) в оценке и контроле кредитных рисков коммерческих банков. На примере банковских систем России и Узбекистана проанализирована динамика CoR за 2020–2024 годы, выявлены различия, причины роста и влияние на финансовую устойчивость. На примере АТ "Капиталбанк" произведён расчёт CoR и анализ в соответствии с международным стандартом IFRS-9 по этапам (1–3). На основе результатов предложены рекомендации по внедрению автоматизированных моделей управления рисками, диверсификации кредитного портфеля и снижению рисков в сегменте потребительского кредитования.

Ключевые слова: Cost of Risk, коммерческие банки, кредитный риск, финансовая устойчивость, IFRS-9, резервы, управление рисками, кредитный портфель, диверсификация.

KIRISH

CoR (Cost of Risk) — bu bank kredit portfelining sifati va risk darajasini baholovchi muhim moliyaviy ko'rsatkich bo'lib, u kreditlar bo'yicha yuzaga keladigan yo'qotishlarga ajratilgan zaxiralarning o'rtacha kredit portfeliga nisbati orqali aniqlanadi. Ayrim tahlillarda CoR barcha risk-menejment bilan bog'liq xarajatlar, potensial



yo'qotishlar hamda boshqaruv xarajatlari yig'indisini o'z ichiga oluvchi TCOR (Total Cost of Risk) tushunchasi orqali ham baholanishi mumkin.

Biroq amaliy bank faoliyatida CoR ko'rsatkichini hisoblashda, odatda, zaxiralar va real zararlar tarkibiy qismlari asosiy omil sifatida olinadi. Boshqa risk-menejment bilan bog'liq operatsion xarajatlar esa ikkinchi darajali hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich bankning risklarni boshqarish samaradorligini, kredit siyosatining barqarorligini va moliyaviy xavflarni kamaytirishdagi natijadorligini ifodalaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS-9) muvofiq, tijorat banklari kredit risklarini baholashda mijozlar hamda ularga ajratilgan kreditlarni uchta asosiy bosqichga ajratadilar:

Stage 1 — past risk darajasi (mijozning to'lov qobiliyati barqaror, kredit bo'yicha muammolar mavjud emas);

Stage 2 — o'rta risk darajasi (kreditning sifati pasaygan, ammo defolt holati kuzatilmagan);

Stage 3 — yuqori risk yoki defolt holatidagi aktivlar (to'lov kechikishlari mavjud, kredit yo'qotish ehtimoli yuqori).

Shu tarzda, CoR (Cost of Risk) banklarning kredit risklarini aniqlash va tahlil qilishda, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichning umumiy matematik ifodasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{CoR} = \frac{\text{Kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga ajratilgan zaxiralar}}{\text{Kredit portfeli hajmi}} \times 100$$

Banklar Cost of Risk (CoR) ko'rsatkichidan yillik yoki choraklik monitoring vositasi sifatida foydalanadilar. Ushbu ko'rsatkich kredit portfelining sifati hamda risk darajasini aks ettirganligi sababli, CoRning o'sishi kredit portfelining sifat darajasi pasayib borayotganini bildiradi va shu bilan birga zaxira siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Zaxira siyosatini takomillashtirish jarayonida CoRning yuqori darajada shakllanishi banklarning kapital yetariligi va moliyaviy barqarorligiga bosim o'tkazishi mumkin. Shu bois, tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish, ya'ni turli sohalar va mijoz segmentlariga kreditlarni oqilona taqsimlash orqali CoR darajasini pasaytirishga intiladilar. Shuningdek, ular foiz stavkalarini hamda kredit shartlarini bozordagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda qayta ko'rib chiqib, risklarni boshqarish samaradorligini oshiradilar.

Natijada, CoR monitoringi banklar uchun nafaqat risklarni aniqlash vositasi, balki moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kredit siyosatini takomillashtirish va mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiluvchi muhim strategik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik iqtisodchi olimlardan René M. Stulz o'z tadqiqotlarida "bank rahbariyati tomonidan optimal risk darajasini belgilash vazifasi bank boshqaruvida muhim o'rin tutadi" degan fikrni ilgari surgan hamda risklarni kompleks baholash zarurligiga alohida e'tibor qaratgan. Uning ilmiy yondashuvi banklarda risklarni strategik boshqarish va ularni moliyaviy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishning ahamiyatini asoslab beradi.

Z. Korzeb esa tijorat banklari misolida CoR (Cost of Risk) ko'rsatkichining turlicha shakllanish sabablari va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan. U o'z izlanishlarida mikroiqtisodiy omillar — jumladan, NPL (muammoli kreditlar ulushi) hamda ROE (kapital rentabelligi) kabi ko'rsatkichlarning CoR darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda aniqlagan.

A. V. Kvitsiniya o'z tadqiqotlarida Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning amaliy mexanizmlarini o'rgangan hamda makroiqtisodiy nobarqarorlik sharoitida bunday risklarning bank sektori barqarorligiga ta'sirini tahlil qilgan. Uning fikricha, iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchan risk boshqaruvi tizimini shakllantirish banklarning moliyaviy barqarorligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Y. S. Ivanov esa bank tizimida kredit riski (qarzni qaytarish ehtimoli) bilan likvidlik riski (qisqa muddatli majburiyatlarni bajara olmaslik ehtimoli) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, kredit riski ortgan hollarda bank likvidligida muammolar yuzaga kelish ehtimoli oshadi. Shu bois risklarni balanslash mexanizmini joriy etish zarur.

Mahalliy tadqiqotchilardan X. Xasanova O'zbekiston bank sektorida risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. U o'z ilmiy ishlarida banklarda risk klassifikatsiyasini joriy etish, faoliyatning har bir bosqichida doimiy monitoring tizimini shakllantirish hamda ichki audit nazoratini kuchaytirish zarurligini asoslab o'tgan.

M. Muxamedov esa risklar nazoratining samaradorligini oshirish maqsadida banklarda avtomatlashtirilgan modellar va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalariga asoslangan kredit risklarini prognozlash tizimini joriy



etishni taklif etgan. Olimning fikricha, bunday raqamli yondashuvlar banklarda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtiradi hamda CoR darajasini pasaytirish orqali umumiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy va statistik tahlil usullari qo'llanilib, O'zbekiston va Rossiya tijorat banklarining 2020–2024-yillar davridagi Cost of Risk (CoR) ko'rsatkichlari asosida dinamik tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar IFRS-9 xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga hamda "Kapitalbank" ATBning ochiq moliyaviy hisobotlariga asoslangan.

Tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash, foizlar asosida baholash va risk bosqichlarini (Stage 1–3) chuqur o'rganish metodlari qo'llanilgan. Shuningdek, empirik ma'lumotlar tahlili orqali CoR darajasi bilan banklarning moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish, kredit portfelining sifatini oshirish va CoR darajasini maqbullashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda Cost of Risk (CoR) ko'rsatkichi bank sektorining moliyaviy barqarorligini baholashda eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Rossiya tijorat banklaridagi CoR ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish natijalaridan ko'rinadiki, 2020-yilda har ikki mamlakat banklarida CoR darajasi deyarli bir xil bo'lgan — Rossiyada 2,2 %, O'zbekistonda 2,3 %. Bu holat pandemiyadan keyingi tiklanish davrida risk darajasining barqaror o'rtacha darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda esa CoR dinamikasida sezilarli tafovutlar kuzatilgan. Jumladan, 2021–2022-yillarda Rossiya banklarida CoR 0,9 % dan 2,9 % gacha oshgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 4,0 % dan 3,6 % gacha pasaygan. Ushbu ijobiy tendensiya O'zbekistonda risk boshqaruv tizimini isloh qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda zaxira siyosatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

2023-yilda Rossiyada CoR 1,7 % gacha kamaygan bo'lib, bu Markaziy bank tomonidan risk zaxiralari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi natijasi sifatida izohlanadi. O'zbekistonda esa CoR 3,9 % darajasida shakllanib, bu chakana kreditlash hajmining ortishi va iste'mol kreditlari segmentining kengayishi bilan bog'liq.

2024-yilda Rossiyada CoR 1,4 % darajasida past bo'lgan, bu risklarni barqaror nazorat qilish mexanizmlarining samarali ishlayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda CoR 4,9 % gacha oshgan bo'lib, bu o'sish asosan mikrokreditlar va mikroqarzlar ulushining ortishi, shuningdek chakana kreditlar segmentida risk darajasining oshishi bilan izohlanadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston va Rossiya banklarida CoR ko'rsatkichlari tahlili, %



2024-yilda Rossiya banklarida risk boshqaruv tizimi yanada takomillashib, kreditlar bo'yicha yo'qotishlar barqaror darajada saqlanib qolgan. Bu holat mamlakat bank sektorida samarali nazorat mexanizmlarining joriy etilgani va zaxira siyosatining puxta yo'lga qo'yilgani bilan izohlanadi.

O'zbekiston bank tizimida esa kredit faoliyatining kengayishi natijasida risk xarajatlari ma'lum darajada oshgan, biroq bu o'sish iqtisodiy faollikning kuchayishi va kreditlash hajmining kengayishi bilan bevosita bog'liq ijobiy jarayon sifatida baholanadi. Ushbu o'sish tijorat banklarining real sektorni moliyalashtirishdagi faolligi ortayotganini ham ko'rsatadi.

Quyida "Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil yakunlari bo'yicha rasmiy bank hisobot ma'lumotlari asosida kredit risklarini baholashda Cost of Risk (CoR) ko'rsatkichining amaliy tahlillari keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. "Kapitalbank" ATBda CoR ko'rsatkichlari tahlili 01.01.2025-yil holatiga

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi (mln so'm)	Izoh
Kreditlar bo'yicha yo'qotishlar uchun qilingan zaxiralar	829 327,0	Kreditlar bo'yicha zaxiralar summasi
Jami kredit portfeli qoldig'i	32 446 783,0	Barcha mijozlarga ajratilgan kreditlar hajmi
CoR — foizda	2,55 %	$829\,327,0 / 32\,446\,783,0 \times 100$

Manba: "Kapitalbank" ATBning 2024-yilgi moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar.

2024-yilda "Kapitalbank" ATBning jami kredit portfeli 32,4 trln so'mni tashkil etib, kreditlar bo'yicha zaxiralarga 829 327,0 mln so'm ajratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Cost of Risk (CoR) ko'rsatkichi 2,55 % ni tashkil etgan. Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, bankning umumiy kredit portfeli hajmiga nisbatan risk xarajatlari 2,55 foiz darajasida shakllangan.

Mazkur ko'rsatkich O'zbekiston bank tizimidagi o'rtacha darajadan past bo'lib, bu "Kapitalbank" ATBning risklarni samarali boshqarayotganini, shuningdek, kredit portfelining sifatini barqaror saqlab turganini ifodalaydi. CoR darajasining pastligi bank kapitalining yetariligi va kredit siyosatining ehtiyotkorlik bilan yuritilayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risk-menejment strategiyasining samaradorligini isbotlaydi (2-jadval).

2-jadval. "Kapitalbank" ATBda kreditlar portfeli va ularga ajratilgan zaxiralar to'g'risidagi ma'lumot 01.01.2025-yil holatiga

Bosqich	Kreditlar (mln so'm)	Zaxiralar (mln so'm)	Zaxiralarning ulushi (%)
Stage 1 – past risk	29 640 734,0	210 544,0	25,4%
Stage 2 – o'rta risk	1 357 816,0	104 252,0	12,6%
Stage 3 – yuqori risk	1 448 233,0	514 581,0	62,0%

Manba: "Kapitalbank" ATBning 2024-yilgi moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bankning kredit portfelining 91,4 foizi past risk bosqichida joylashgan. Bu holat "Kapitalbank" ATB kredit portfelining sifati yuqori ekanini ko'rsatadi. Stage 3 (muammoli aktivlar) bo'yicha zaxiralar ulushi 62 foizni tashkil etgani esa bankning ehtiyotkor kredit siyosatini yuritayotganini anglatadi (3-jadval).

3-jadval. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS 9) ko'ra "Kapitalbank" ATBda kredit risklari tahlili

Ko'rsatkichlar	Stage 1	Stage 2	Stage 3	Jami
Kreditlar hajmi (mln so'm)	29 640 734,0	1 357 816,0	1 448 233,0	32 446 783,0
Ulushi (%)	91,4 %	4,2 %	4,4 %	100 %

Manba: "Kapitalbank" ATBning 2024-yilgi moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

IFRS 9 xalqaro standartlariga muvofiq ravishda, kreditlar uch bosqichda tasniflanadi. Stage 1 ulushining 91,4 foizga tengligi bank portfelining asosan sog'lom kreditlardan iborat ekanini ko'rsatadi. Stage 3 ulushi nisbatan kichik — 4,4 foiz bo'lishiga qaramay, ularga ajratilgan zaxiralarning yuqori darajada shakllantirilgani bankning xavflarni yetarlicha qoplaganini bildiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha CoR (Cost of Risk) ko'rsatkichining 2020–2024-yillardagi o'sish dinamikasi bank tizimida risk darajasi nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi. Rossiya va O'zbekiston bank tizimlari bo'yicha CoR dinamikasining 2020–2024-yillarda sezilarli farqlanishi, bir tomondan, O'zbekistonda aholining iste'mol kreditlariga bo'lgan talabning ortishi, milliy valyutadagi kreditlar ulushining ko'payishi hamda moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi bilan izohlanadi. Rossiyada esa risk boshqaruv tizimida avtomatlashtirilgan modellarni joriy etish, makroiqtisodiy ssenariylarga mos zaxira ajratish tizimining takomillashtirilishi CoR ko'rsatkichining barqarorlashuviga olib kelgan. Kelgusida kredit portfelini diversifikatsiya qilish, avtomatlashtirilgan risk modellari va raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish orqali CoR barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekiston bank tizimida CoR ko'rsatkichining barqaror darajada saqlanishi hamda kredit risklarini uzoq muddatli boshqarish samaradorligi oshishi kutiladi. "Kapitalbank" ATBning 2024-yildagi CoR ko'rsatkichi 2,55 % ni tashkil etgani, O'zbekistondagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lib, bu bankning kredit risklarini boshqarish siyosati barqaror va ehtiyotkorlik tamoyillariga asoslanganini ko'rsatadi. CoR darajasining pastligi risklarni samarali nazorat qilish mexanizmlari yo'lga qo'yilganini bildiradi. Umuman olganda, Rossiya banklari bilan solishtirganda O'zbekistonda CoR nisbatan yuqori, biroq bu holat ichki bozordagi kredit ekspansiyasi va iqtisodiy o'sish jarayonidagi tabiiy omillar bilan bog'liq. "Kapitalbank" o'z kredit portfelini ehtiyotkorlik bilan boshqarib, risk xarajatlarini past darajada ushlab turmoqda. Kredit risklarini baholashda IFRS 9 xalqaro standartlari asosida avtomatlashtirilgan modellarni qo'llash va makroiqtisodiy ssenariylarga moslashuvni kuchaytirish tavsiya etiladi. Stage 2 kreditlar ulushini kamaytirish maqsadida individual mijoz strategiyalarini ishlab chiqish hamda ixtisoslashtirilgan "Early Warning System" (erta ogohlantirish tizimi)ni joriy etish zarur. Shu bilan birga, mamlakat miqyosida CoR ko'rsatkichini barqarorlashtirish uchun banklarda risk tahliliga inson omili ta'sirini kamaytirish maqsadida modellashtirilgan risk baholash tizimlarini joriy etish, kredit portfelini diversifikatsiya qilishda mintaqaviy tavakkalchilik darajalarini inobatga olish hamda iste'mol kreditlari segmentida riskni boshqarish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 21.12.1995-yil 154-I-son "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri — O'zR 11.11.2019-yil O'RQ-582-son Qonuni bilan tasdiqlangan). <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>
2. O'zbekiston Respublikasining 25.04.1996-yil 216-I-son "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri — O'zR 05.11.2019-yil O'RQ-580-son Qonuni bilan tasdiqlangan). <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yil PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
4. Stulz, R. M. (2016). Risk Management, Governance, Culture, and Risk Taking in Banks. *Economic Policy Review*, August 2016, pp. 43–60. Federal Reserve Bank of New York.
5. Korzeb, Z. (2021). Determinants of Differentiation of Cost of Risk (CoR) of Commercial Banks in Poland. *Journal of Risk and Financial Management*, Vol. 14, Issue 3, Article 110. MDPI.
6. Квициния, А. В. (2025). «Анализ и оценка основных рисков банковской системы России и их влияние на российский банковский сектор».
7. Иванов, Е. С.; Морозова, С. А. (2019). «Банковские риски: связь кредитного риска и риска ликвидности».
8. Maxmudov, O. T. (2019). Banklar faoliyatini reyting asosida baholashning o'ziga xos xususiyatlari. "Biznes-Ekspert" jurnali, №10, 121–124-betlar.
9. Махмудов, О. Т. (2020). Зарубежный опыт определения рейтинга коммерческих банков. "Экономика и социум" xalqaro ilmiy-amaliy jurnal, Moskva, №12(79), 35–42-betlar.
10. Maxmudov, O. T. (2020). Inqiroz davrida tijorat banklari barqarorligini ta'minlash masalalari. "Moliya va bank ishi" ilmiy-amaliy elektron jurnali, №2, 78–85-betlar.
11. <https://cbu.uz> — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti.
12. <https://kapitalbank.uz> — "Kapitalbank" ATBning moliyaviy hisobot materiallari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
